



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar: Google Scholar



Crossref



OpenAIRE



CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



QASHQADARYO VILOYATIDA ASALARICHILIKNI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH

Samieva Gulnoza Toxirovna, Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЧЕЛОВОДСТВА В КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ КЛАСТЕРНОГО ПОДХОДА

Самиева Гулноза Тохировна, Кулмуротов Сохибжон Жуманиёзович

IMPROVING THE EFFICIENCY OF BEEKEEPING IN THE KASHKADARYA REGION THROUGH A CLUSTER-BASED APPROACH

Samieva Gulnoza Tokhirovna, Qulmurotov Sokhibjon Jumaniyozovich

Received: May 8, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida asalarichilik tarmog'ini klasterli yondashuv asosida tashkil etish va barqaror rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Qashqadaryo viloyatining tog' va tog' oldi hududlarida asalarichilik klasterini tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi, tashkiliy mexanizmlari va floristik salohiyati tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, klasterli tuzilma viloyatda asalarichilik rentabelligini 32–38 foizga oshirish, asal ishlab chiqarish hajmini 2,4 baravarga ko'paytirish va 850 dan ortiq yangi ish o'rni yaratish imkonini beradi. Maqolada Qashqadaryo viloyatiga moslashtirilgan "Kitob–Shaxrisabz tog' asalarichilik klasteri" modeli ishlab chiqilgan va uning 5 yillik iqtisodiy prognozi taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo viloyati, asalarichilik klasteri, tog' asalarichilik, barqaror rivojlanish, hududiy iqtisodiyot, changlatish xizmatlari, Kitob–Shaxrisabz zonasi.

Abstract: This article investigates the organization and sustainable development of beekeeping in Kashkadarya region based on a cluster approach. The economic efficiency, organizational mechanisms, and floristic potential of establishing a beekeeping cluster in the mountainous and foothill areas of Kashkadarya were analyzed. Results indicate that a cluster structure can increase beekeeping profitability by 32–38 percent, boost honey production 2.4-fold, and create over 850 new jobs. The article proposes a "Kitab–Shakhrisabz Mountain Beekeeping Cluster" model adapted to Kashkadarya's conditions, with a 5-year economic forecast.

Keywords: Kashkadarya region, beekeeping cluster, mountain beekeeping, sustainable development, regional economy, pollination services, Kitab–Shakhrisabz zone.

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию вопросов организации сети пчеловодства в Кашкадарьинской области на основе кластерного подхода и её устойчивого развития. Проанализированы экономическая эффективность, организационные механизмы и флористический потенциал создания пчеловодческого кластера в горных и предгорных районах Кашкадарьинской области. Результаты показали, что кластерная структура позволяет повысить рентабельность пчеловодства в области на 32–38%, увеличить объём производства мёда в 2,4 раза и создать более 850 новых рабочих мест. В статье разработана модель «Китаб–Шахрисабзского горного пчеловодческого кластера», адаптированная к условиям Кашкадарьинской области, и представлен её 5-летний экономический прогноз.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, пчеловодческий кластер, горное пчеловодство, устойчивое развитие, региональная экономика, услуги опыления, зона Китаб–Шахрисабз.

**KIRISH**

Asalarichilik nafaqat asal va boshqa ari mahsulotlari ishlab chiqarish, balki qishloq xo'jalik ekinlarini changlatish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham beqiyos ahamiyatga ega tarmoqdir. Butunjahon Oziq-ovqat va Qishloq xo'jaligi Tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi oziq-ovqat mahsulotlarining taxminan 75 foizi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita changlatuvchi hasharotlar, jumladan asalarilar faoliyatiga bog'liq. Potts va hammuallif. (2016) ta'kidlaganidek, changlatish xizmatlari global miqyosda yillik 235–577 milliard AQSh dollari iqtisodiy qiymatga ega.

O'zbekiston Respublikasida asalarichilik so'nggi yillarda sezilarli rivojlanish tendentsiyasini namoyon etmoqda. O'zbekiston Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, "O'zbekiston asalarichilari" uyushmasi tashkil etildi va 2017–2021 yillarga mo'ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Mamlakat bo'yicha asalarichilik sohasida 12 mingdan ortiq tadbirkor faoliyat ko'rsatmoqda, jami ari oilalari fondi 1,9 million birlikdan oshgan. Biroq, 1 ari oilasiga to'g'ri keladigan o'rtacha hosildorlik 12–20 kg atrofida qolib, bu jahon o'rtacha ko'rsatkichidan (25–30 kg) sezilarli past.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubi-g'arbida, Qashqadaryo havzasida va Pomir-Oloy tog' tizmasining g'arbiy chekkalarida joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 28 570 km²ni tashkil etadi. 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyat aholisi 3 560,6 ming kishini tashkil etgan bo'lib, ularning 54,7 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Viloyat hududi g'arbdan sharqqa tomon 300 metr dan 4 000 metrgacha ko'tarilib boradi. Shimoli-sharqiy qismidagi tog'lar (Hisor va Zarafshon tizma tog'lari) baland nuqtalari 4 000 metrgacha yetadi. Kitob–Qamashi tog' etaklari 450–950 metr balandlikda joylashgan bo'lib, boy o'simliklar qoplamiga ega.

Viloyatning iqlimi kontinental bo'lib, yillik yog'in miqdori tekisliklarda 290–300 mm, adirlarda 520–550 mm, tog'larda 550–650 mm ni tashkil etadi. Bu iqlim xilma-xilligi turli xil o'simliklar florasini shakllantiradi: viloyat hududida 2 800 dan ortiq o'simlik turi qayd etilgan bo'lib, ularning 420 dan ortig'i asalari

uchun gulshira va gulchang manbai hisoblanadi. Ayniqsa, Kitob, Shaxrisabz va Yakkabog' tumanlarining tog' va tog' oldi zonalarida qizilmiya (*Glycyrrhiza glabra*), yovvoyi yong'oq, bodom, jiyda, do'lana va boshqa nektarli o'simliklar keng tarqalgan.

Klasterli yondashuv – geografik yaqinlikdagi o'zaro bog'liq korxona va institutlarning ixtisoslashgan guruhi bo'lib, ular birgalikda sinergik samaradorlik yaratadi. M. Porter (1998) ta'kidlaganidek, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi yaqin kooperatsiya individual korxonalar natijasidan sezilarli yuqori ko'rsatkichlarni ta'minlaydi. Xalqaro tajribada – Yangi Zelandiyaning Manuka asal klasteri (yillik eksporti 400 mln AQSh dollari), Turkiyaning Mug'la asalarichilik klasteri (8 000 dan ortiq xo'jalik, mamlakatdagi asal ishlab chiqarishning 15 foizi), Sloveniyaning Apis mellifera carnica milliy brendi – klaster modelining samaradorligi isbotlangan.

Qashqadaryo viloyatida asalarichilikni klasterli tashkil etish zarurati quyidagi omillar bilan belgilanadi: xo'jaliklarning mayda va tarqoq tuzilishi (o'rtacha xo'jalik hajmi 20–35 oila), qayta ishlash infratuzilmasining yetishmasligi, eksport sertifikatsiyalashning murakkabligi, hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan aloqaning zaifligidir. Tadqiqotning maqsadi – Qashqadaryo viloyatining tabiiy-iqlim sharoitiga moslashtirilgan asalarichilik klaster modelini ishlab chiqish va uning barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2021–2025 yillarda Qashqadaryo viloyatining oltita tumanida olib borilgan. Tumanlar tanlovi geografik-iqlimiy zonalar bo'yicha amalga oshirildi: tog' zonasi (Kitob, Shaxrisabz), tog' oldi zonasi (Yakkabog', Chiroqchi) va tekislik zonasi (G'uzor, Dehqonobod).

SWOT-tahlil. Har bir iqlimiy zona (tog', tog' oldi, tekislik) bo'yicha asalarichilik tarmog'ining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlandi.

Iqtisodiy-statistik tahlil. Xo'jaliklar moliyaviy ko'rsatkichlari (daromad, xarajat, rentabellik, mehnat unumdorligi) IBM SPSS Statistics 27.0 dasturi yordamida tahlil qilindi. Korrelyatsion tahlil (Pirson koeffitsienti) va ko'p omilli regressiya modeli qo'llanildi.

1-jadval.**Qashqadaryo viloyati tumanlari bo'yicha asalarichilik ko'rsatkichlari⁴⁰**

Tuman	Ari oilalari (ming)	Xo'jaliklar soni	Asal (tonna)	Hosil-dorlik (kg/oila)	Balandlik (m)	Iqlimiy zona
Kitob	18,5	245	259,0	14,0	900–2500	Tog'
Shaxrisabz	22,4	310	291,2	13,0	600–2000	Tog'
Yakkabog'	15,8	198	184,9	11,7	500–1500	Tog' oldi
Chiroqchi	12,3	165	133,2	10,8	450–1200	Tog' oldi
G'uzor	8,6	112	81,7	9,5	300–600	Tekislik
Dehqonobod	7,2	96	64,8	9,0	350–700	Tekislik
JAMI	84,8	1 126	1 014,8	11,97*	–	–

⁴⁰ Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi va mualliflar so'rovnomasi, asosida tayyorlandi. 2025. * – o'rtacha.



Floristik potentsial baholash. Viloyatning 6 ta tumanida 48 ta nazorat maydonchasida (har biri 1 ga) gulshira va gulchang beruvchi o'simlik turlarining tarkibi, zichligi va mavsumiy dinamikasi o'rganildi. Nektarli o'simliklar xaritasi GIS texnologiyalari (QGIS 3.28) yordamida tuzildi.

Qashqadaryo viloyati ko'rsatkichlari Turkiyaning Mug'la, Sloveniyaning Krain va Argentinaning Pampa asalarichilik mintaqalari bilan qiyoslandi. Taqqoslash mezonlari: 1 ari oilasiga hosildorlik, eksport ulushi, sertifikatlash darajasi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asalarichilik xo'jaliklarining hozirgi holati. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, Qashqadaryo viloyatidagi 280 ta tadqiqotga jalb etilgan xo'jalikning 71,4 foizi (200 ta) mayda toifaga mansub bo'lib, 50 tagacha ari oilasiga ega. O'rta xo'jaliklar (50–150 oila) ulushi 21,1 foiz (59 ta), yirik xo'jaliklar (150 dan ortiq) esa atigi 7,5 foiz (21 ta) ni tashkil etdi. Xo'jaliklarning 76,8 foizi an'anaviy texnologiyalar asosida faoliyat yuritmoqda. Zamonaviy usullarni (sun'iy changlatish, nazoratli ko'paytirish, sifat menejmenti tizimlari) qo'llayotganlar ulushi atigi 11,4 foiz. Qolgan 11,8 foiz xo'jaliklar qisman zamonaviy elementlarni joriy etgan.

Iqlimiy zonalar bo'yicha tahlil sezilarli farqlarni ko'rsatdi. Tog' zonasidagi (Kitob, Shaxrisabz) xo'jaliklarda 1 ari oilasidan o'rtacha 13,0–14,0 kg asal olingan bo'lsa, tekislik zonasida (G'uzor, Dehqonobod) bu ko'rsatkich 9,0–9,5 kg ni tashkil etdi. Farqning asosiy sabablari – tog' zonasidagi floristik xilma-xillikning yuqoriligi (1 ga maydonda o'rtacha 28–42 tur nektarli o'simlik) va pestitsidlar ta'sirining kamligidir. Tekislik zonasida paxta va g'alla maydonlarida qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar asalari oilalari salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (ari oilalari nobud bo'lish darajasi tekislikda 24,6 foiz, tog' zonasida 8,7 foiz).

Qashqadaryo viloyatining tog' va tog' oldi zonasida asalarichilik uchun qulay sharoitlar mavjud. Kitob tumanining tog' yamochlarida qizilmiya, yong'oq, bodom, do'lana, tog' atirguli va yovvoyi mevali daraxtlar keng tarqalgan. Nektarli o'simliklarning gulli davrining

uzunligi tog' zonasida mart oyining oxiridan oktyabr oyigacha (190–210 kun) davom etadi, bu tekislik zonasiga (130–155 kun) nisbatan 40–60 kun uzoq. GIS tahlili natijalariga ko'ra, viloyatning Kitob–Shaxrisabz–Yakkabog' hududida jami 48 700 ga yer maydoni yuqori nektarlilik potentsialiga ega.

Tadqiqot natijalari asosida Qashqadaryo viloyatiga moslashtirilgan "Kitob–Shaxrisabz tog' asalarichilik klasteri" modeli ishlab chiqildi. Klaster quyidagi beshta asosiy komponentdan iborat:

Birinchi komponent – Ishlab chiqarish yadrosi: Kitob, Shaxrisabz va Yakkabog' tumanlaridagi kamida 120 ta asalarichilik xo'jaligi va 3 ta kooperativni birlashtiradi. Umumiy ari oilalari fondi 10 000–12 000 oilani tashkil etadi. Asosiy ixtisoslanish – tog' gul asali, qizilmiya asali va yong'oq asali kabi ixtisoslashtirilgan mahsulotlar.

Ikkinchi komponent – Qayta ishlash markazi: Shaxrisabz shahri yaqinida yillik quvvati 400 tonna bo'lgan ISO 22000 standartiga muvofiq jihozlangan qayta ishlash va qadoqlash zavodini tashkil etish. Zavodda asal filtrlash, namligi va sifatini nazorat qilish, shisha va plastik idishlarga qadoqlash liniyalari o'rnatiladi.

Uchinchi komponent – Ilmiy-amaliy markaz: Qarshi davlat texnika universiteti bazasida selektsiya, ari kasalliklari diagnostikasi va yangi texnologiyalar sinash laboratoriyasi. Markaz Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti hamda xalqaro tashkilotlar (Apimondia, FAO) bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi.

To'rtinchi komponent – Logistika va marketing xizmati: asal mahsulotlarini saqlash uchun 3 ta sovetkich ombori (Kitob, Shaxrisabz, Qarshi), transport xizmati va brendlashtirish bo'limi. "Qashqadaryo tog' asali" brendi ostida ichki va tashqi bozorga chiqish strategiyasi.

Beshinchi komponent – Moliyaviy qo'llab-quvvatlash: viloyat huzuridagi tadbirkorlik qo'llab-quvvatlash fondi orqali imtiyozli kreditlar, "Alokdabank" lizing kompaniyasi xizmatlari va grant dasturlari.

2-jadval.

Klasterli va an'anaviy tashkiliy shakllardagi asalarichilik ko'rsatkichlari qiyosi⁴¹ (Qashqadaryo viloyati)

Ko'rsatkich	An'anaviy xo'jalik	Klaster a'zosi (prognoz)	O'sish
1 oiladan asal hosildorligi (kg/yil)	11,97	18,4	+53,7%
1 kg asal tannarxi (so'm)	42 000	28 500	–32,1%
Sotish narxi (so'm/kg, tog' asali)	70 000	110 000	+57,1%
Rentabellik (%)	66,7	285,9	+219,2 p.b.
Eksportga mo'ljallangan mahsulot (%)	3,8	22,5	+18,7 p.b.
Sertifikatsiyalangan xo'jaliklar (%)	5,4	52,0	+46,6 p.b.
Ari oilalari nobud bo'lish darajasi (%)	18,2	7,5	–10,7 p.b.

⁴¹ Mualliflar tadqiqoti natijalari va prognoz modeli, 2026.



NPV hisob-kitoblariga ko'ra, "Kitob-Shaxrisabz tog' asalarichilik klasteri"ni tashkil etish uchun boshlang'ich investitsiya hajmi 5,6 milliard so'mni tashkil etadi. Diskontlash stavkasi 12 foiz bo'lganda, 5 yillik NPV 9,4 milliard so'mga, ichki daromadlilik me'yori (IRR) 37,2 foizga teng. Investitsiyaning o'zini qoplash muddati 2,2 yil. Korrelyatsion tahlil natijalariga ko'ra, klasterga a'zo bo'lish va xo'jalik daromadi o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjud ($r = 0,81$; $p < 0,001$).

Qashqadaryo viloyatida 2024-yil holatiga 86 400 ga mevali bog'lar, 142 000 ga paxta va 67 500 ga beda maydonlari mavjud. Klaster doirasida tashkil etilgan changlatish xizmati yillik qo'shimcha daromadning 24–30 foizini ta'minlaydi. Shaxrisabz va Kitob tumanlarida gilos va olma bog'lari uchun changlatish xizmati ko'rsatilganda, gilos hosildorligi 17–22 foizga, olma hosildorligi 20–26 foizga oshgani aniqlangan.

3-jadval.

Klaster modelining 5 yillik iqtisodiy prognozi
(“Kitob–Shaxrisabz” klasteri)

Ko'rsatkich	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	5-yil
Klaster a'zolari soni	80	105	120	135	150
Asal ishlab chiqarish (tonna)	145	198	260	315	380
Jami daromad (mln so'm)	9 200	15 400	22 100	28 900	36 500
Eksport ulushi (%)	6	12	18	22	28
Yangi ish o'rinlari (yig'ma)	120	280	450	650	860
Yig'ma sof foyda (mln so'm)	–620	1 850	5 900	11 400	18 600

Tadqiqot natijalari Qashqadaryo viloyatida asalarichilik klasterini tashkil etishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligi va ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlaydi. Olingan natijalarni bir necha jihatdan muhokama qilish zarur.

Viloyatning Kitob–Shaxrisabz tog' zonasi asalarichilik klasteri uchun o'ziga xos afzalliklarga ega. Birinchidan, tog' florasining xilma-xilligi (1 ga da 28–42 tur nektarli o'simlik) tekislik hududlarga (8–15 tur) nisbatan 2–3 barobar yuqori. Ikkinchidan, tog' hududlarida pestitsidlar qo'llanishi minimal bo'lganligi sababli, asalari oilalari salomatligi ancha yaxshi (nobud bo'lish 8,7% ga qarshi tekislikning 24,6%). Uchinchidan, tog' asali sifati va ta'mi o'ziga xos bo'lib, uni “premium” segment mahsuloti sifatida pozitsiyalash imkonini beradi.

Qashqadaryo viloyatining tog' zonasidagi hosildorlik (13–14 kg/oila) Turkiyaning Mug'la mintaqasidagi ko'rsatkich (18–22 kg/oila) dan past. Biroq, klaster doirasida zamonaviy texnologiyalar joriy etilgach, prognoz modeli bo'yicha hosildorlik 18,4 kg/oilaga yetadi, bu Mug'la ko'rsatkichlariga yaqinlashadi. Yangi Zelandiyaning Manuka asal klasteri tajribasiga o'xshab, Qashqadaryo viloyatida ham mahalliy floristik xususiyatlarga asoslangan ixtisoslashtirilgan asal turlarini (qizilmiya asali, tog' gul asali) brendlashtirish eksport narxini 2–3 barobar oshirish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan klaster modelida davlat infratuzilma (yo'llar, suv ta'minoti, elektr energiyasi), ilmiy tadqiqotlar va sertifikatsiyalash xarajatlarining 35 foizini qoplaydi. Qolgan 65 foiz xususiy sektor – asalarichilik xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari va investorlar tomonidan moliyalashtiriladi. Viloyat bo'yicha 2020–2024 yillarda qabul qilingan hukumat qarorlari doirasida asalarichilik sohasiga imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari belgilangan bo'lib, bu

klaster tashkilotchilari uchun qulay moliyaviy muhit yaratadi.

Klaster modelining muhim jihati – ekologik barqarorlikni ta'minlash. Qashqadaryo viloyatining tekislik qismida paxta yetishtirishda qo'llaniladigan pestitsidlar (neonikotinoidlar) asalari populyatsiyasiga jiddiy tahdid soladi. Klaster doirasida “asalari himoya zonalarini” tizimini joriy etish, ya'ni ari oilalari joylashgan hududning 3 km radiusida pestitsid qo'llashni cheklash taklif etiladi. Tadqiqot davomida bunday zonalar joriy etilgan Yakkabog' tumanining pilot hududida ari oilalari nobud bo'lish darajasi 22,1 foizdan 9,8 foizga kamaygan.

Klaster doirasida IoT sensorlari yordamida uyalarni masofadan monitoring qilish, GPS tizimi orqali ko'chmanchi asalarichilik marshrutlarini optimallashtirish va “Arizor.uz” mobil ilovasi orqali asalarichilar o'rtasida axborot almashishni ta'minlash rejalashtirilgan. Tadqiqot davomida raqamli monitoring tizimini sinab ko'rgan 24 ta xo'jalikda ari oilalari saqlash ko'rsatkichi 14 foizga yaxshilangan.

Shaxrisabz shahri YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan tarixiy obidalar bilan mashhur. Klaster doirasida “asal turizmini” rivojlantirish – turistlar uchun asalarichilik xo'jaliklarini ko'rish, asal tatish va xarid qilish dasturlari – qo'shimcha daromad manbai sifatida rejalashtirilgan. Sloveniya tajribasida api-turizm yillik 2,5 mln yevro daromad keltirishi aniqlangan.

Tadqiqot 6 ta tuman bilan chegaralangan bo'lib, viloyatning qolgan 8 ta tumanida sharoit farqli bo'lishi mumkin. Prognoz modeli makroiqtisodiy beqarorlik va iqlim o'zgarishlari ta'sirini to'liq hisobga olmagan. Bundan tashqari, respondentlarning sub'ektiv javoblari natijalar aniqligiga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni beradi:

Birinchidan, Qashqadaryo viloyatining Kitob–Shaxrisabz tog' zonasi asalarichilik klasterini tashkil



etish uchun eng qulay hudud hisoblanadi. Tog' florasing xilma-xilligi, pestitsidlarning kam qo'llanishi va iqlim sharoitlarining qulay ekanligi bu hududda asalarichilik hosildorligini 53,7 foizga oshirish imkonini beradi.

Ikkinchidan, "Kitob-Shaxrisabz tog' asalarichilik klasteri" modeli iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega: NPV 9,4 milliard so'm, IRR 37,2 foiz, investitsiya o'zini qoplash muddati 2,2 yil. Klaster 5 yil ichida 860 dan ortiq yangi ish o'rnini yaratadi va viloyat eksport salohiyatini sezilarli kengaytiradi.

Uchinchidan, klaster modelining muhim afzalligi – changlatish xizmatlari orqali qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi. Mevali bog'lar hosildorligini 17–26 foizga oshirish hisobiga qishloq aholisining umumiy daromadi ortadi.

To'rtinchidan, tog' asali, qizilmiya asali va yong'oq asali kabi ixtisoslashtirilgan mahsulotlarni "Qashqadaryo tog' asali" brendi ostida eksportga chiqarish viloyatning raqobatbardoshligini oshiradi.

Kitob-Shaxrisabz hududida pilot asalarichilik klasterini tashkil etish; klaster koordinatsion kengashini tuzish; asalarichilar malaka oshirish markazini ochish; "asalari himoya zonalari" tizimini joriy etish; raqamli monitoring va blockchain asosida mahsulot izlanish tizimini keng tatbiq etish; Shaxrisabzning turizm salohiyatidan foydalanib api-turizm dasturini ishga tushirish.

Mualliflar haqida / Сведения об авторах / Information about the Authors

1. Samieva Gulnoza Toxirovna. Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d., Ph.D. Кандидат экономических наук (PhD), доцент кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета. PhD in Economics, Associate Professor of the Department of Innovative Economy, Karshi State Technical University.

E-mail: samiyevagulnoza@gmail.com

ORCID: 0009-0003-3192-3887

2. Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi. Старший преподаватель кафедры «Инновационная экономика» Каршинского государственного технического университета. Senior Lecturer of the Department of Innovative Economy, Karshi State Technical University.

E-mail: sohibkulmurotov@gmail.com

ORCID: 0009-0004-4508-5818

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktabrdagi PQ-3327-son "Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Asalarichilikni qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi ekinlarini asalari bilan changlatishga

doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori (2022).

3. Porter M.E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. Harvard Business Review, 76(6), 77–90.

4. FAO (2023). The State of Food and Agriculture: Pollinators, Pollination and Food Production. Rome: Food and Agriculture Organization of the United Nations.

5. Potts S.G., Imperatriz-Fonseca V., Ngo H.T. et al. (2016). Safeguarding pollinators and their values to human well-being. Nature, 540(7632), 220–229.

6. OECD (2022). Agricultural Policy Monitoring and Evaluation: Cluster Development in Agriculture. Paris: OECD Publishing.

7. Patel V., Pauli N., Biggs E. et al. (2021). Why bees are critical for achieving sustainable development. Ambio, 50(1), 49–59.

8. Pocol C.B., Marghitas L.A. (2017). Beekeeping clusters in Romania: A preliminary study. Journal of Apicultural Research, 56(3), 238–247.

9. Formato G., Smulders F.J.M. (2011). Risk management in primary apicultural production. Safety Assurance during Food Processing, 149–164.

10. Apimondia (2023). World Beekeeping Report. International Federation of Beekeepers' Associations.

11. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi (2024). Qishloq xo'jaligi statistik ma'lumotnomasi. Toshkent.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Asalarichilikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari to'plami (2020–2024).

13. KIBERXAVFSIZLIKNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. QS Jumaniyozovich - «НАДЕЖДА НАЦИЙ» МЕЖДУНАРОДНОГО НАУЧНО ..., 2024

14. ASALARICHILIK TURIZMINI AMALGA OSHIRISH ORQALI ASALARICHILIK FAOLIYATINI TANITISH, MAHALLIY ASALARICHILIK MAHSULOTLARINI SOTISH VA EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.

15. QS Jumaniyozovich - ... NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 2024

16. Importance of the beekeeping sector in regional agriculture

17. SJ Qulmurotov, SU Iskandarov - American journal of Business Management, Economics and Banking. AQSH-2024

18. QISHLOQ XO'JALIK EKINLARINI ASALARILAR YORDAMIDA CHANGLATISHNING AHAMIYATI. QS Jumaniyozovich. World scientific research journal. 2024

19. Economic and Innovative Prospects for the Regional Development of Beekeeping Clusters in the Context of Uzbekistan. Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich. American Journal of Economics and Business Management 2025, 8(10), 5238-5245. <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajebm>



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz